

## O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI

**Narbayeva Xosiyatxon Adilbek qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Atiyazov Saparbay Jumamuratovich**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Turkiy tillar fakulteti O‘zbek tili kafedrası assisenti*

***Kalit so‘zlar:** Metodika, metod, dars, o‘yin, o‘zbek tili, “Insert” metodi.*

***Key words:** Methodology, method, lesson, game, Uzbek language, “Insert” method.*

Darsning tashkil qilinishi ta’lim jarayoning eng asosiy va muhim jihati hisoblanadi. Uni qiziqarli tashkil qilish esa o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi va amalda qo‘llashida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamon jadallik bilan rivojlanayotgan bir davrda pedagoglarning o‘rni va ularning xizmati katta. XXI asr texnika va texnologiyalar rivojining eng cho‘qqiga chiqqan davri desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday rivojlanish tabiiyki, inson zotining aql zakovatini talab qiladi. Aql va zakovat esa yillar davomida ko‘p o‘qish va tajriba orqali ortib boradi. Yosh avlod bilimli bo‘lishi uchun eng avvalo o‘zini, o‘zligini va ajdodlarini, ona tilini tanishi, bilishi va sevishi lozim. Chaqaloq dunyoga kelganidan keyin eng birinchi eshitadigan so‘zi, eng birinchi eshitadigan kuyi aynan ona tilida jaranglaydi. Borliq mehr ona tilida beriladi. Tarixdan ma’lumki, ko‘plab otabobolarimiz ona tilimizni saqlab qolish, rivojlantirish uchun juda ko‘p mehnat qilishgan hattoki, o‘z jonlarini qurbon qilishgan. Mustaqillik yillaridan keyin ona tilimiz bo‘lmish o‘zbek tilini rivojlantirish uchun juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunga kelib ham bunday ishlardavom ettirilmoqda.

O‘zbek tili yurtimiz hududida ikki xil shaklda o‘tiladi. Birinchisi sof ona tili ya’ni o‘zbek tili bo‘lsa, ikkinchisi davlat tili. Davlat tili deb ta’lim tili boshqa tilli bo‘lgan masalan rus, qoraqalpoq, qozoq, turkman va yana shu kabi tillarda olib boriladigan sinflar uchun mo‘ljallangan. O‘qituvchi tomonidan tanlanayotgan metod o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishi lozim. Metodlarni uch turga ajratish mumkin. Bulardan birinchisi ta’limiy metodlar, ikkinchisi o‘yin tarzida o‘tkaziladigan metodlar (yoki mashqlar) va ta’limiy va o‘yin tarzida o‘tkaziladigan

metodlar. O‘yin tarzida bajariladigan mashqlar asosan o‘quvchilarning diqqatini jamlash, miyasida yangi bilimlar uchun joy ajratish maqsadida foydalaniladi. Har bit pedagog dars davomida ikki tur metoddan ham foydalansa, ta’lim sifatining oshishiga va o‘quvchilarning dars tez va oson o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Dars davomida “Insert” metodidan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. O‘quvchilarga biror matn beriladi va ular matnni o‘qish bilan birga hoshiga belgilar ham qo‘yib ketadilar. Masalan: “V” (zagcha) – ta’nish ma’lumot; “+” (plyus) – yangi ma’lumot; - (minus) siz allaqachon bilganlaringiz, bilaman deb o‘ylaganlaringizga qarama-qarshi; “?” (savol belgisi) – bu tushunarsiz, yoki ushbu masla bo‘yicha to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lmoqchimankabi belgilardir. Matn o‘qib chiqilganidan so‘ng o‘quvchilar har bir belgiga tayangan holda o‘qiydilar va muhokama qiladilar.

Guruhdagi muhokamalar “belgidan belgiga” olib boriladi, belgi qo‘yilgan jumlar o‘quvchilarning bilganidan boshlab, savollarga qadar davom etadi va matn yoki mavzu bo‘yicha xulosa chiqariladi.

Ushbu metodni dars davomida qo‘llashimiz orqali o‘quvchilardagi diqqatni jamlash, matnni tushinish, uni tahlil qilish vas hu bilan birgalikda uni muhokama qilish kabi ko‘nikma va malakalarni, bilimlarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Ular mustaqil ish olib boorish kabi malakaga ham ega bo‘ladilar.

Bu metodni nafaqat o‘zbek tili darslarida balki, adabiyot darslarida ham qo‘llash samarali natijalarni qo‘lga kiritishda yordam beradi. O‘zbek tili darsliklarning katta qismi o‘quvchilarni erkin va ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan matn va mashqlardan tashkil topgan. Shu sababli o‘zbek tili darslarida beriladigan mashq va metodlarni badiiy asarlarga tayangan holda amalga oshirsak ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz. Albatta, bunday holatda birinchi bo‘lib asarning o‘quvchilar yoshiga to‘g‘ri kelishi, uning janri, mavzusi va dolzarbligiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Prezidentimiz tomonidan kitobxonlikka katta e’tibor qaratayotgan bir paytta biz pedagoglar ta’limni shu shaklda isloh qilib, yangiliklar, yangi bilimlar kiritadigan bo‘lsak ta’lim sifati yanada yaxshilanadi.

“So‘zlovchi chiplar” metodi.

Bu metod asosan o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, fikrlash va shu bilan birgalikda tinglash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Darsda o‘quvchilarni guruhlarga ajratib olamiz va har bir guruhga alohida bir mavzu beramiz va keyin chiplarni tarqatib chiqamiz. Chiplar o‘rnida ruchkadan foydalansak ham bo‘ladi. O‘quvchilar doira bo‘lib parta atrofida turib oladilar va o‘qituvchi tomonidan berilgan mavzu bo‘yicha bittadan gap aytadilar. Bunda birinchi turgan o‘quvchi qo‘lidagi chipni (yoki ruchkani) parta ustiga qo‘yadi va gap aytadi. Keyingi o‘quvchilar ham shu shaklda davom etadilar.

Hamma o‘quvchi gap aytganidan keyin boshidan boshlash mumkin bo‘ladi. Yana fikr aytmoqchi bo‘lgan o‘quvchi boshqalar tugatganidan keyingina yana fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘quvchilar orasidagi hamjihatlik, do‘stona munosabat ham darsning samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Shu bilan birgalikda barchaning teng huquqliligini ta’minlaydi va o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bildira olish, boshqalarning fikrini hurmat bilan tinglashni o‘rganadilar. Bu darsning sifatli o‘tishini ta’minlaydigan omillarda biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rahmatullayev. Sh Hozirgi adabiy o‘zbek tili – Toshkent – 2006
2. Ro‘ziyeva. D, Usmonboyeva. M, Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanishi (metodik qo‘llanma) Toshkent-2013.
3. Sayfullayeva. R, Mengliyev. B, Boqiyeva. G, Qurbonova. M, Yunusova .Z Abduzalova. M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent: 2009